

**Jondor tuman axborot-kutubxona markazi.
Axborot-bibliografiya xizmati.**



“Islomiy unvon olgan qal’a ”

**O’lkashunoslikka oid
yo’l ko’rsatkich.**

Jondor tuman.

Islomiy unvon olgan qal'a.

Jondor mavzesining qadimgi Buyuk ipak yo'lining olamga mashhur Baykand - Poykent bilan Buxoro oralig'ida joylashganligi qadimda bu mavzeda Zarafshon Poykentdaryo Moxondaryo singari suvga to'la daryo shaxobchalarining daraxt ildizidek yoyilib oqqanligi bu hududda hayot gurkirab yashnashiga odamlar o'troqlashib qishloqlar paydo bo'lishiga asos bo'lgan.

Nomi Muhammad Narshaxiydek tarixchi olimning "Buxoro tarixi" asarida bir necha bor ta'kidlangan va ta'rifu tavsifi keltirilgan Xunbun Xumin qishlog'i tarixi bu maskanda yashab o'tgan olimu allomalar bilan haqli ravishda faxrlanishga to'la asoslari bor.

Xunbun tarixiy jihatdan xududdagi eng qadimgi qishloqlardan biri. Uning paydo bo'lish vaqti Poykent va Varaxsha shaxri Torob va Romush qal'alari bilan bir davrga to'g'ri kelad

Eramizdan avvalgi VII-VIII asrlarda o'troqlashgan aholi qishlash uchun mo'jaz maskanlarni bunyod eta boshlashgan. Bir qabila va ularga yaqin kishilar yashagan nomdor qishloqlar ahli dushmandan uning bosqinchilardan o'zlarini himoya qilish maqsadida tepaliklar atrofini baland devor bilan o'rab mustahkam qo'rg'onga aylantirishgan.

Bunday qo'rg'onlar ko'proq Iskandar va Afrosiyob bosqinchilik davriga to'g'ri kelishini inobatga oladigan bo'lsak qal'a- devor bosqinchilardan himoyalaniish vositasi ham bo'lgan. Xunbunde baland tepalik ustida qurilgan qo'rg'on

atrofi chuqur xandakdan iborat bo'lib dushman o'tolmasligi uchun doimo suvga to'ldirib qo'yilgan. Kechqurunlari qal'a darvozalari yopilib soqchilik joriy etilgan.

Xunbun qal'asi 6 gektarcha maydonni egallovchi baland devorli tepalikdan iborat bo'lgan Tepalik qal'a devori paxsa va xom g'isht shaklidagi kesakdan bunyod etilib to'rt tomondan darvozasi mavjud bo'lgan.

Arab tarixchisi Abul Qosim ibn Hauqalning ta'kidlashicha Devor bilan o'ralgan aholi punktlari u davrda qishloq hisoblangan. Demak Xunbun ham ana shunday qishloqlar sirasiga kiradi.

Qishloqning Xunbun deb nomlanishiga kelsak bu haqda turli rivoyatlar mavjud. Bir rivoyatda qal'a devori ustidan bahor chog'lari atrofga razm solinsa qip- qizil lolazor yastanib yotgani uchun "Xuni bindi" ya'ni burun qonidek qip qizil ma'nosida Xunbun deb atashgan deyiladi. Ikkinchi bir rivoyatda esa Xunlar davlati tarkibida bo'lgan va Og'uzxon hukmdorligi davrida gullab yashnagan bu qishloqni "Xunbun" deb atashgan. Xunlar davlati eramizdan avvalgi I asrda parchalanib ketgan. Yana bir taxminga ko'ra bu qishloq nomi "Xum" so'zidan olingan qadimda bu yerda xumdon bo'lib sopol idishlar hamda haykalchalar qatori suv saqlashga mo'ljallangan katta xumlar ham pishirilgan. Sopol siniqlarining tepalik uzra sochilib yotganligi ham bu tahminni isbotlagandek tuyuladi go'yo.

Xunbun qishlog'i qadimda Narshaxiy sanab o'tgan Buxoro atrofidagi anhorlarning yettinchisi Baykonruddan suv ichgan dehqonchilik qilingan bog'-rog'lar bunyod etilgan.

Rus yozuvchisi Boris Almazov o'z kitobida arablarning otliq lashkari va mahoratini shunday ta'riflaydi ; "625 yil Madina yaqinida orqasini Uxod tog'iga o'tirgan holda Madina lashkarlari saf tortgan bu lashkarga Muhammadning o'zi qo'mondonlik qilardi ". Hammasi bo'lib 750 lashkar chap qanotini 50 yoychi himoya qilib turardi.

Bu kuchlarga qarshi Makkaning 3 ming kishilik qo'shinli 200 otliq qo'shin esa piyodalarini ikki yondan himoya qilib turardi. Boshida jang yakkama - yakka olishuv bilan boshlanadi keyin payg'ambarning lashkari hujumga o'tadi Makkaning qo'shindagi piyodalarni yengib qarorgohga bostirib boradi. 750 nafar dastlabki musulmonlar o'zidan 4 karra ko'p qo'shinni tor - mor keltiradi. 200 otliq Madinaliklarning orqa tomondan aylanib o'tib Muhammad lashkariga qattiq zarba beradi. Ularni o'q - yoychilar ham daf eta olmadilar. Yangi islom dini uchun boshlangan dastlabki jang shu xilda xunuk xotima topadi. Madina lashkarlari tor-mor keltiriladi va payg'ambar yarador bo'ladi. Makkaga 630 yildagina zabt etiladi.

Islom dinini yoyish uchun boshlangan ana shu birinchi jang asta- sekin boshqa mamlakatlarni ham qamrab ola boshlaydi payg'ambarning xalifalari bu jang tepasida turadi. Qutayba ibn Muslim ham o'z payg'ambari boshlab bergan ishni qoyilmaqom qilib bajarishga mahkam bel bog'laganlardan edi.

705 -yilda Xuroson amiri qilib tayinlangan Qutayba ibn Muslim qisqa fursatda butun Xuroson yerlarini To'xoriston-Amudaryoning o'rta va yuqori oqimidagi ikki sohilini ishg'ol etgan yerlarni egallagan va Jayhun ning o'ng sohiliga kirib kelgan. U 709- yilda Buxoroga so'nggi hal qiluvchi yurish qildi. Bu son - sanoqsiz qo'shinga ega bo'lgan rahm-shafqatni bilmaydigan bosqinchilarga qarshi Buxoro hukmdorlari ham puxta hozirlik ko'rdilar. Buxoroliklarga Sug'd xalq lashkarla yordamga keldilar ular o'z mustaqilliklarini saqlab qolish yo'lini buxoroliklar bilan birgalikda arablarga qarshi kurash olib borishda deb bildilar. Amudaryodan kechib o'tgan arablar qo'shini Buxoro yo'lidagi birinchi mustahkam istehkom hisoblangan

Poykentni qattiq jangu - jadal va hiyla bilan ishg'ol etdilar. Shaharning butun boyligi - oltinu kumush idishlar taqinchoq va boshqa qimmatbaho boyliklarni o'lja sifatida qo'lga kiritdilar va tuyalarga ortib Xurosonga jo'nadilar. Poykentdan ular bir million dirham pul ko'p miqdorda o'ljalar va 4 ming asir olib ketganlar. Shaharda zo'ravonlik va ommaviy qirg'in o'tkazilgan.

O'g'illaridan birini Poykent hukmdori qilib tayinlagan Qutayba Buxoroning boshqa shaxaru qishloqlarini qo'lga kiritish uchun yurishni davom ettirdi. Poykentdan keyingi yirik qal'a hisoblangan Xunbun Qutaybaning ikkinchi mo'ljali bo'ldi. Chunki kichik bo'lsada mustahkam bu qo'rg'onni egallamay turib boshqa qishloqlarga yurish Buxoroni qo'lga kiritish mumkin emasligini Qutayba yaxshi bilgan.

Qutayba bosqiniga uzoq vaqtdan hozirlik ko'rib kelayotgan Xunbun aholisi dushmanga qattiq qarshilik ko'rsatgan. Bu qal'a uchun bosqinchilar bir necha kun jang olib borishgan. Katta - kichik hamma hatto ayollar ham harbiy kiyim kiyib kamon bilan dushman ustiga nayza yog'dirib turgan.

Narshaxiyning yozishicha "Xunbun Romiton oralig'ida ko'p lashkar to'plab Qutaybani o'rab oldilar".

Ammo katta qo'shin va qurol - aslahaga ega bo'lgan bosqinchilar turli yo'llar bilan bu qishloqlar aholisini birin- ketin yenga boshladi va har qishloqqa o'z noiblarini tayinlab boshqa shahar va qishloqlar tomon ot soldilar. Buni Narshaxiy bunday yozadi ; Qutayba Baykand ishidan forig' bo'lgach Xunbunga jo'nadi va ko'p janglar qilib Xunbunni hamda ko'pgina mayda qishloqlarni oldi va Varzonaga ketdi. Xunbun qishlog'i to'la egallangach arablar o'z tartib- qoidalarini joriy eta boshladilar. Bunday talablardan birinchisi qishloq ahlini majburlab Islom diniga itoat ettirish bo'ldi. Tirik qolgan har bir kishiga Islomni qabul qilish taklif etilib siylandi dindan qaytib unga bo'ysunmaganlarni ko'pchilik oldida jazolash tartibi joriy etildi. Bu hol bir necha oy davom etdi va qishloq noiloj Islom diniga iqror bo'ldi.

Davr o'tishi bilan Buxoro va uning atrof qishloqlarida ham islomiy madaniyat urf- odatlar tarkib topib dunyoviy ilmlar qatori diniy ilmlar ham rivojlana bordi. Arab alifbosidagi yozma asarlar yuzaga kela boshladiyu Masjidu madrasalar barpo etilib diniy urfon chuqur o'rgatila boshlandi.O'z zamonasida musulmon olamida islomshunos olimlar allomalar yetishib chiqdiki ularning ilmu hikmati hali hanuz dunyo ahlini hayratga solib keladi.

Xunbun qishlog'idan ham ana shunday fozil kishilar muhaddis olimlar yetishib chiqqanligi tarixiy manbalarda qayd yetilgan. 12- asrda yashab o'tgan va 50 ga yaqin tarixiy asarlar yozib qoldirgan Islom olamining mashhur allomasi Imom Abdulkarim as- Sam'oniy o'zining "Al-Ansob" - "Nasabnoma" asarida guvohlik berishicha Buxoro atrofida yuzlab qishloqlardan olimu fozil kishilar yetishib chiqqan. Ulardan ayrimlarining nomlarini keltirishni joiz deb bildik.

Abul Qosim Vosil ibn-Hamza al- Xunbuniy Xuminda yashab o'tgan allomalardan biri bo'lgan. U o'z zamonasida

Islom madaniyati va uning tarixini chuqur o'rgangan. O'z navbatida payg'ambarimiz Muhammad salolohu alayhi vasallam tomonlaridan insho qilingan hamda vaqt o'tishi bilan og'izdan - og'izga ko'chib kelayotgan hadislarni to'plash ilmi bilan shug'ullangan hamda bu maqomatda katta sharaftga ega bo'lgan. Bu allomaning dovrug'i atrof shaharlarga ham ma'lumi mashhurligi "Nasabnoma"da keltiriladi.

Abul Qosim al-Xunbuniy ilmi hadis uchun ko'p safarlarda bo'lganlar. Bu fozil inson hadis ilmini g'oyat teran tushungan va ko'plab ishonchli hadislarni to'plab, kitob tartib bergan. Xatib Bag'dodiyning "Bag'dod tarixi" asarida keltirilishicha, bu muhaddisning "Hadislari ko'p va yaxshidir". Buxoroning ulug' olimlaridan sanalmish abul Qosim al-Xunbuniy Buxoroda mashhur bo'lgan Abdulkarim gulobodiydan va yangi bir nechta buxorolik fozillardan ta'lim olgan. Ammo, allomaning yozib qoldirgan hadisi komillari bizgacha, yetib kelmagan. Alloma 467 hijriy, 1076 melodiy yilda o'z qishlog'i Xunbunda vafot etgan va tepalik pastidagi qabristonda dafn etilgan.

Yana shu qishloqlik Abu Roja Ahmad ibn-Dovut Xunbuniy ham o'z zamonasining ilmu donishlaridan bo'lgan va ishonchli hadislar to'plashda qishloqdoshi Abul Qosim Xunbuniydan kam bo'lmagan. U kishiga Xoja G'unjoriyning nazarlari tushgani ham bejiz emas albatta. 100 ming hadisni yod bilganligi uchun Xoja laqabi berilgan G'unjoriy "Tarix'i Xoja G'unjoriy", "Kitobi Farzoili", "Sahobati arba" kitoblari muallifi sifatida ko'plab hadisnavis muhandislar qatori Abu Roja Xunbuniy merosiga ham alohida e'tibor bilan qaragan.

Boshqa hadisnavislar bilan uning sahih hadislarini taqqoslab ko'rgan. Abu Roja Xunbuniy yozib qoldirgan hadislar sahih-ishonchliligi bilan ajralib turishini zo'r ehtirom bilan ta'kidlagan. Bu zot o'z zamonasida marvga borib, u yerdagi ulamolardan ta'lim olgan, 1022 yilda vafot

etgan, maqbaralari ismoil Somoniy xiyobonining g'arbiy janubidadir. Afsuski bu qabriston o'rni tekisldanib, bir qismi uy-joy, bir qismi hozirgi istirohat bog'iga aylantirilib yuborilgan.

Hadisshunoslik ilmida ma'lumu mashhur bo'lgan ikki muhaddis Abul Qosim Vosil ibn-Hamza al-Xunbuniy hamda, Abu Roja Ahmad ibn-Dovud Xunbuniylar o'z ilmi donishlari, hadis ilmini rivojlantirishdagi benazir xizmatlari bilan o'z ona qishloqlari Xunbunni musulmon olamida mashhuru ma'lum qildilar. Butun musulmon dunyosi bu ikki alloma tufayli Xunbunni tanidi, ta'rifini eshitdi.

“Buxoro mashriq shaharlardan bo'lib, “Qubbat-ul-Islom”dir Ul tomonda ya'ni Movarounnahrda “Madinat-ul-Islom” Madina o'rnidadur, fuqarosi faqiqlar va olimlar nuri ila, atrofi Ma'nilar ma'shuqalari bilan ziynatlang'on..” Ulug' donishmand Xoja Olouddin Otamalik ibn Muhammad Juvayniy 1260 yili yozib tugatgan “Tarixi Jahonkushoy” asarida Buxoroni ana shunday ta'riflaydi.

Munka xoqonning onasi Sirkutoy Begim Buxoroda madrasa qurdirib, uni boshqarishni Shayx Baharziyga topshiradi va daromatlarini vaqf qilib beradi. Mo'g'ullar unga “Ulug' Shayx” unvonini beradi. Botuxon, Xulaguxon ham uning ta'sirida musulmon bo'lishgan. Hayotlik davridayoq shuhrati keng yoyilib, Baharziy tariqati bilan nom qozongan.

Yuz minglab odamlarni jang-jadalsiz haq yo'liga boshlagan shayxning ovozi Arab xalifaligiga borib yetgach u yerda Sayfiddin Baharziyga “Shayx-ul-olam” unvoni Buxoro shahriga esa “Buxoroyi Sharif” degan yorliq beriladi. Holbuki bu davrda ilk bor dunyoga kelgan Quddus shaxri va Parvardigor nozil etgan Qur'oni Karimgina “sharif” ya'ni “muqaddas” degan nomga sazovor edi xolos.

Xuddi ana shu haqiqatdan kelib chiqib Xunbun "Shaxri Islom" ya'ni Islomiy ilm markazi musulmon dini qaror topgan joy yorlig'i esa Xunbun va xunbunliklar uchun ham siylov ham faxrga aylanib qolgan va hali-hanuz Xunbun qa'la tepaligi deb yuritiladi.

Ma'lumki Islom ma'naviyatining dastlabki g'ishtlarini quyganlardan biri muxaddis avliyolar piri buyuk alloma Xoja Abu Havs Kabir bo'lib u kishining hikmatlari va karomatlari tufayli Buxoro dunyoda "Qubbatul Islom" nomini olganidek Xunbun ham biz yuqorida nomlarini keltirgan allomalar ularning hadis ilmidagi xizmatlari bois "Shaxri Islom" deya ulug'langan bo'lishi mumkin.

"Shaxri Islom" nomini olgan muqaddas qal'a bir necha yuz yil gullab yashnagan. Bu yerda yashagan xalqlar dehqonchilik hunarmanchilik va savdo-tijorat ishlarida Poykent va Varaxshadan qolishmagan holda boy-badavlat yashab mehnat qilganlar. Tepalik ustidagi sopol parchalarni pishiq g'isht bo'laklari eng muhimi tarixiy ma'lumotlar bu yerdagi 2.5-3 ming yillik hayot tarzidan guvohlik beradi. Xunbun Samoniylar 819-999 yillar hukumronligi davrida ham turk hukmdorlari bo'lmish qoraxoniylar davrida ham ko'p urush va bosqinchiliklar to's-to'polon kelishmovchiliklarni boshdan kechirdi.

Ammo mo'g'ullar istilosi davrida bu qishloq ham yer bilan yakson qilingan. Dinu diyonati bo'lmagan Chingizxon va uning vorislari Poykent singari musulmon olamida mashxur Shahri Islom qal'asini ham yer yuzidan supurib tashladi. Qolgan-qutgan odamlar pastda balki hozirgi qishloq o'rnida Xumin nomi bilan o'z qishloqlarini qayta qurib yashab kelgandirlar. Shaxri Islom qal'a xarobalari esa bosqinchilarni la'natlagancha nurab xo'mrayib turibdi hali-hanuz.

Adabiyotlar.

1. Ражабов, Қ. Жондор тумани тарихи (Қисқача маълумотнома) : 1 Қ.Ражабов, Ф. Темаров, Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2015. - 52 б.
2. Ражабов, Қ. Махмуд Торобий кўзғолони // Ўзбекистон миллий энциклопедияси. Т.5. - Тошкент: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2003, - Б, 556 - 557.
3. Ражабов, Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати 920 -924 йиллар. – Тошкент. Маънавият нашриёти, 2002, - Б.110 – 111.
4. Турсунов, М. Жондор ва жондорликлар. Туман тарихидан лавҳалар, 1935 -1995 йиллар. - Бухоро: Бухоро нашриёти, 1995. -350.
5. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси.1-12 -Т.- Тошкент.: Ўзбекистон нашриёти, 2005,-656 б.
6. Ҳамро Асадов. Ўлимга тик борурмиз:Тарихий рисола.-Бухоро: .Бухоро нашриёти,2004.-56 б.
7. Ҳамро Асадов.Жондорий алломалар :Рисола.- Бухоро :Таълим сериясидан,2008.-19 б.
8. Ҳамро Асадов. Аждодлари қимматли юрт: Адабий, тарихий-публицистик нашр.-Бухоро.: Бухоро нашриёти, 2011.-88 б.

9. Музаффар Турсунов. Жондор ва жондорликлар: Туман тарихидан лавҳалар.1938-1995 йиллар. Бухоро.: “Бухоро ”нашриёти, 1995.-218 б.
10. Ҳамро Асадов Беш мўъжиза –беш тарих: Тарихий публицистик лавҳалар.- Бухоро: Бухоро нашриёти, 2008.-50 б.
11. Дилмурод.А. Маҳмуд Торобий.: [Романдан парча]./А.Дилмурод.//Jondor ovozi.-2017.-5 янв.
12. Дилмурод.А. Маҳмуд Торобий.: [Романдан парча]./А.Дилмурод.//Jondor ovozi.-2017.-12янв.
13. Дилмурод.А. Маҳмуд Торобий.: [Романдан парча]./А.Дилмурод//Jondor ovozi.-2017.-2 фев.
14. Дилмурод.А. Маҳмуд Торобий.: [Романдан парча]./А.Дилмурод/Jondor ovozi.-2017.-6 апр.
15. Дилмурод.А. Маҳмуд Торобий.: [Романдан парча]./А.Дилмурод//Jondor ovozi.-2017.-15 июн.
16. Дилмурод.А. Маҳмуд Торобий.: [Романдан парча]./А.Дилмурод//Jondor ovozi.-2017.-29июн.

17. Дилмурод.А. Махмуд Торобий.: [Романдан парча]./А.Дилмурод//Jondor ovozi.-2017.-13 июл.
18. Дилмурод.А. Махмуд Торобий.: [Романдан парча]./А.Дилмурод//Jondor ovozi.-2017.-19 июл.
19. Толипов, Ю. Орият : [Юсуф Толиб ва Олим Эшоновнинг "Орият Жўра Амин" номли романидан парча келтирилган Жўра Амин] / Ю.Толипов, О.Эшонов // Jondor ovozi. - 2022 . -21 апр.
20. Толипов, Ю. Орият : [Юсуф Толиб ва Олим Эшоновнинг "Орият Жўра Амин" номли романидан парча келтирилган Жўра Амин] / Ю.Толипов, О.Эшонов // Jondor ovozi. - 2022 . -5 май
21. Толипов, Ю. Орият : [Юсуф Толиб ва Олим Эшоновнинг "Орият Жўра Амин" номли романидан парча келтирилган Жўра Амин] / Ю.Толипов, О.Эшонов // Jondor ovozi. - 2022 . -19 май .
22. Толипов, Ю. Орият : [Юсуф Толиб ва Олим Эшоновнинг "Орият Жўра Амин" номли романидан парча келтирилган Жўра Амин] / Ю.Толипов, О.Эшонов // Jondor ovozi. - 2022 . -26 май .

23. Толипов, Ю. Орият : [Юсуф Толиб ва Олим Эшонинг "Орият Жўра Амин" номли романидан парча келтирилган Жўра Амин] / Ю.Толипов, О.Эшонинг // Jondog ovozi. - 2022 . -2 июн .